

ABDULLA QODIRIY IJODIGA ADABIY TANQIDCHILIK MUNOSABATI

Qayumova Gulshodaxon Po'latjon qizi
Farg'ona davlat universiteti
filologiya fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti vakili Abdulla Qodiriyning badiiy merosi va unga adabiy tanqidchilarning munosabati tahlil qilinadi. Adib yaratgan "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari va bir qator hikoyalardagi yaratilgan obrazlarning o'ziga xosligi, ularda o'zbek millatiga xos milliy koloritning namoyon bo'lish jihatlari e'tiborga olingan. Shu bilan birga Qodiriyning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni va zamonaviy o'zbek adabiyotidagi qayta talqinlar yoritiladi. Izlanishlar natijasi shuni ko'rsatadiki, adib ijodida milliy adabiy tafakkur doimiy yetakchi va o'zgarmas qadriyat sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, milliy kolorit, o'zbek romanchiligi, Qodiriy merosi, obrazlar tizimi, tanqidiy baho, adabiy jarayon, Sotti Husayn.

Аннотация: В данной статье анализируется художественное наследие Абдуллы Кадири, основателя романа в узбекской литературе, и отношение к нему литературных критиков. Рассматривается уникальность образов, созданных в романах "Утган кунлар", "Мехробдан чайон" и ряде рассказов писателя, аспекты проявления в них национального колорита, характерного для узбекской нации. Одновременно освещается роль Кадири в узбекской литературе и его переосмысление в современной узбекской литературе. Результаты исследования показывают, что в творчестве писателя национальное литературное мышление проявляется как постоянная, ведущая и неизменная ценность.

Ключевые слова: Абдулла Кадири, национальный колорит, узбекский роман, наследие Кадири, система образов, критическая оценка, литературный процесс, Сотти Хусайн.

Annotation: This article analyzes the artistic legacy of Abdulla Qodiriy, the founder of the novel in Uzbek literature, and the attitude of literary critics to him. The uniqueness of the images created in the novels "Bygone Days", "Mehrobdan shayon" and a number of stories created by the writer, the aspects of the manifestation of the national color characteristic of the Uzbek nation in them are taken into account. At the same time, the role of Qodiriy in Uzbek literature and reinterpretations in modern Uzbek literature are highlighted. The results of the research show that in the writer's work, national literary thinking is manifested as a constant leading and unchanging value.

Keywords: Abdulla Qodiriy, national color, Uzbek novel, Qodiriy's legacy, system of images, critical assessment, literary process, Sotti Husayn.

KIRISH

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega ijodkordir. U romanchilik maktabining asoschisi, milliy tafakkurda o'ziga xos va tub burilish yasay olgan. Qodiriyning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" romanlari, ko'plab hikoyalari, publitsistik maqolalari XX asr boshidagi adabiy-ma'rifiy jarayonning yetakchi manbalaridan biri hisoblanadi. A.Qodiriy ijodi adib hayotlik davrdanoq turli xil talqinlarga uchragan. Bu kabi munosabatlar zamon talabi, o'qig'uvchilarning qiziqishidan dalolat beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karim o'zining "Abdulla Qodiriy fenomeni" nomli monografiyasida adib yashagan davr va muhit haqida shunday fikrlarni bildiradi: "XX asrning birinchi choragi muhitida yangicha shakllangan zamonaviy adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik matbuotda ko'zga ko'rinsa boshlagan yosh ijodkorlarga, shuningdek, alohida nashrdan chiqqan badiiy asarlarga e'tibor berdi. Bu davrda ma'lum bir shaxs ijodini talqin etuvchi maqolalarni ham, alohida olingan badiiy asar yoki lirik to'plamga tegishli taqrizlar, bahs-munozara va umumtavsifiy maqolalarni ham uchratish mumkin. Ular jiddiy tekshirilsa, adabiy jarayon holati, nisbatan erkin ijodiy muhit va dastlabki xolis talqinlar namoyon bo'ladi.

Abdulla Qodiriy, garchi "Baxtsiz kuyov", "Juvonboz", "Uloqda" kabi asarlari va hajviy -publitsistik chiqishlari bilan adabiy jamoatchilik orasida yaxshi tanilgan bo'lsa-da, 20-yillar avvalida uning ijodi yuzasidan maxsus jiddiy maqolalar yozilgan emas. Davr adabiy kechimiga doir umumtavsifiy maqolalarda talantli qalam egalari qatorida sanab va u haqda yo'l-yo'lakay bir-ikki jumla yozib o'tiladi. Bu manba - ma'lumotlar Abdulla Qodiriy ijodiga bag'ishlangan ilmiy ishlarda deyarli esga olinmaydi".

Ya'ni hayotda ham qandaydir soha bo'yicha mashhurlik ostonasida turgan inson tanqidga uchrashi tabiiy holat. Va bu jarayon adibni ham chetlab o'tmagan. Lekin jiddiy va chuqur izlanilsagina xolis bayon etilgan fikrlarni aniqlash mumkin. Bir qator asarlari bilan o'zbek adabiyotini boyitgan bo'lsa ham, ijodi yuzasidan tarixiy iz qoldirgan ishlar, ilmiy o'rganishlar o'tgan asr boshida uchramaydi.

A.Qodiriy haqidagi dastlabki yirik tadqiqotlardan biri Oybekning "Abdulla Qodiriyning ijodiy yo'li" [18] nomli risolasidir. Risolada adib ijodining ayrim fazilatlarini va o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. U Qodiriy romanlariga xos qator xususiyatlarni tanqid qilish bilan o'zi yozmoqchi bo'lgan romanlariga xos ijodiy prinsiplarini bayon etadi, ammo mazkur asarlar tahlilida sotsiologik realizm metodlari yetakchilik qiladi.

Bahodir Karim A.Qodiriy ijodiga qiziqish bilan qaragan va maxsus “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur” nomli kitobida shunday fikrlarni aytib o‘tadi:

“Yosh Turkiston”ning 1931 yilgi 18-sonida Azimzoda ismli muallifning Mashhaddan yozgan “O‘tkan kunlarimiz” sarlavhali bir maqolasi borki, Abdulla Qodiriyga munosabat bu o‘rinda ancha jiddiy va aybnoma ruhidadir.

30-yillarda S. Husayn, M. Buzruk singari o‘zbek munaqqidlari adibning «millatchi», “mayda burjuaziya” vakili ekanini yozgan, romanlaridan sho‘rocha talablarni qoniqtiradigan manzaralar topolmay ayblagan bo‘lsalar, Azimzoda Abdulla Qodiriyning o‘z maqolasida “bolsheviklarga sotilg‘on” hisoblaydi; adib romanlarini o‘qib, unga shunday aybni yuklaydi. Darvoqe, bir o‘rinda Botuni bolsheviklarning ishonchli xizmatchisi, Mirtamirni esa “bolsheviklar manfaati uchun she‘rlar yozadi”, “bolshevik malaylaridan” deb aytadi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bu maqoladagi mulohazalar chuqur ilmiy-estetik talqinlar natijasi emas, balki mavjud hokimiyat bilan bir oz murosaga kelib ijod etayotgan, tahlikalar ichida kun kechirayotgan milliy bir adibga nisbatan quruq, asossiz hujumlardir” .

Adabiyotshunos olimlar D.Quronov va X.Polvonovalarning “Sharq yulduzi” jurnali 2007-yil 1-sonida “O‘tkan kunlar” romani matniy tadqiqi to‘g‘risida bir maqolasi bosildi. Unda “Inqilob” jurnali bir – ikki marta tilga olinadi. Biroq kengroq qiyoslar, batafsilroq ma’lumot berilmaydi. Ikkinchidan maqolada: “Romanning “Inqilob”dagi nashri bilan, kitob bo‘lib chiqishi orasida besh yillik masaofa bor – bu vaqt mobaynida adibning mahorati o‘sgani shubhasiz”, degan bir taxminiy gap ham “O‘tkan kunlar”ning jurnaldagi parchasini tekshirishga zarurat tug‘diradi.

Romanning nashriga oid yana bir dalil shuki, “Chaqimchiliq” fasli 1924-yili shoir Cho‘lpon tartib bergan “Adabiyot parchalari” to‘plamining 15-21-sahifalarida chop etiladi. Mashhur sharqshunos E.Bertels “O‘tgan kunlar” munosabati bilan “yevropa romani, ingiliz romani, rus romanlari bilan bir qatorda o‘zbek romanining yaratilganligi” ni yozgan edi. Ulkan qozoq yozuvchisi, o‘zbek adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyondasi Muxtor Avezov fikricha, “O‘tkan kunlar” romani bilan Abdulla Qodiriy 20-yillarda “Sharqning eng ulkan yozuvchisi bo‘lib qolgan edi”. Abdulla Qodiriy ongli ravishda novatorlik yo‘li bilan bordi va izlanishlari samarali bo‘ldi. U o‘zbek romanchilik maktabini yaratdi.

Qodiriy asarlaridagi sehrlil jozibaning omillaridan biri uning milliy tilidir. Adib asar yozish uchun poydevor bo‘ladigan manba qidirgan paytda o‘zbek xalqiga tegishli bo‘lgan jozibador, madaniy va go‘zal til shaklini ham izladi.

A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida muallif nutqining juda antiqa shakliga duch keldik:

- *“Kumushbibi uyqudan turib favqulodda bir holga uchraydi: bir kechada hammaning tushiga “to‘y” kirib chiqqan.*

- *To‘y uchun yangi ko‘rpalar qoplamoqchi bo‘ladilar, par to‘shaklar olmoqchi bo‘ladilar, kuyov uchun qanday kiyim yarashmog‘i ham bahs qilinar, Oftob oyim eriga oltin kamar olmoqqa buyuradir... Tavba, demay chora yo‘q: Oftob oyimning kuyovlari kim, qaysi qizlarini erga beradilar, ularning Kumushbibidan ham boshqa qizlari bormi? Ularning qizlari yolg‘iz, demak, Kumush erga beriladir...*

- *Tushunarli gap emas:*

- *Erga kim tegadir?*

- *Kumush!*

- *Kumushbibi kuyovni yoqtiradimi, yo‘qmi? Bu to‘g‘rida uning fikrini bilish kerakmi, emasmi?*

- *So‘zlashish ham kerak emas, bildirish ham.*

- *Nega?*

- *Chunki odat shul? Kumush ota –ona yoqtirgan kishiga rozi bo‘lish uchun majbur”*

Mazkur badiiy nutq bayonini o‘qigan kitobxon, albatta, ikki qahramon so‘zlashayotgan dialog bo‘lsa kerak, deyishi mumkin. Sinchiklab e‘tibor bersangiz, bu nutqda hech qanday qahramonlar ishtirok etmayapti. Qizig‘i shundaki, yuqoridagi ko‘chirmani yozuvchi qahramonlar nutqiga ham yuklashi mumkin edi. Ammo Kumushbibining uyqudan uyg‘onishi, bir kechada hammaning tushiga to‘y kirib chiqishi, to‘y uchun yangi ko‘rpalar-u par to‘shaklarni tayyorlash kabi badiiy tasvirlarni faqatgina hokim nutq izohlab berishi mumkin. Izohdan anglashiladiki, muallif nutqining milliyligi har bir so‘z va iboralarda yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Olim Sharafuddinov Abdulla Qodiriyning mahoratini, xususan, adibning qalami “lirizm bilan qaynashi”ni, obrazlarning tashqi ko‘rinishini, ular nutqidagi tabiiylikni, qahramonlarni o‘rab turgan muhitning realistik tasvirini tan oladi. Shuning uchun ham adib qalamiga: “Har qanday lavhani ikki-uch qalam o‘ynatishda chiza oladi”, deb baho beradi.

“O‘tkan kunlar” romani Abdulla Qodiriyga shuhrat keltirdi. Ayni chog‘da, o‘sha davr tanqidchisi Sotti Husaynni ham mashhur qildi. Munaqqid aynan “O‘tkan kunlar” nomi bilan kitob yozdi.

Garchand adibdan maslahat olib bo‘lsa ham, munaqqid Jo‘rji Zindonning “Armanusa” romani bilan “O‘tkan kunlar”ni taqqoslaydi. Adabiy ta’sirni dalillashga intiladi. Roman janrini ta’riflashga urinadi.

M.Buzruk “Mehrobdan chayon” (mavzui, sinfiy tusi va tuzilishi jihatidan tekshirilmishdur)” sarlavhali maqolasida asar syujetini bayon qila turib yozadi: “Mehrobdan chayon“ning eng katta va eng yoqimli qahramoni Anvardur. Hamma voqea uning atrofida aylanadi”.

Istiqlol davri tanqidchiligida Qodiriy ijodiy mahoratiga bag‘ishlangan bir qancha maqola, tadqiqot yuzaga keldi. Ularning ayrimlari monografik xarakterda bo‘lib, yozuvchi

hayoti va ijodini yaxlit holda o‘rganishga bag‘ishlangan ocherklar va monografiyalar bo‘lsa, ayrimlari ijodkor poetik olamining muayyan qirralarini yoritgan tadqiqotlardir. Jumladan, M.Qo‘shjonovning “O‘zbekning o‘zligi”, I.G‘aniyevning “Ruhiy go‘zallikning qismati”, A.Murodxonovning “Iste‘dod jozibasi”, H.Lutfiddinovaning “Gullarning ra‘nosi”, “Abdulla Qodiriyning badiiy dunyosi”, B.Karimning “Qodiriy qadri”, “Abdulla Qodiriy”, “Adabiyot badiiyat abadiyat” kabi asarlarda adib poetik olami tadqiq etilsa, U.Normatovning “Qodiriy bog‘i”, A.Aliyevning “Istiqlol va adabiy meros” kitobidagi “Abdulla Qodiriy” ocherki, S.Mirvaliyevning “Abdulla Qodiriy” kabi tadqiqotlarida uning hayoti va ijodi batafsil yoritilgan.

XULOSA

Adib asarlariga diqqat bilan yondashilsa, ularda xalq hayotiga oid lavhalar, ayniqsa, folklorga xos komik obrazlarni o‘z asari tarkibiga singdirib yuborganligi sezilib turadi. Uning “O‘tkan kunlar” romanidagi qiziqchi va masxarabozlarning san‘ati real hayotidagi xalq tomosha san‘atining roman tarkibiga mohirona singdirib yuborilganligining yorqin namunasi bo‘la oladi.

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida maishiy-psixologik tasvirga moyillik bildiradi. Shu bois uning ushbu romanidagi folklor an‘analari ham mana shu nuqtai nazardan istifoda etilgan.

O‘zbek romanchiligi asoschisi, benazir yozuvchi Abdulla Qodiriyning hayot yo‘li va boy adabiy merosini monografik tadqiqotlar darajasida o‘rganish ishlari olib borilgan va shu kecha-kunduzda uning asarlari xususida adabiyotshunoslik, lingvistik aspektida tekshirish ishlari olib borilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bahodir Karim “Abdulla Qodiriy fenomeni” monografiyasi. Toshkent.2019
2. Bahodir Karim “Abdulla Qodiriy va germenevtik tafakkur” kitobidan bob.
3. D.Quronov va X.Polvonovalarning “Sharq yulduzi” jurnali 2007-yil 1-sonida “O‘tkan kunlar” romani matni tadqiqi to‘g‘risida bir maqolasi
4. B.Qosimov, Sh. Yusupov, U. Dalimov, Sh. Rizayev, S. Axmedov. Milliy uyg‘onish davri adabiyoti. – T.: Ma’naviyat . 2004.
5. Elmurod Tursunov. “O‘zbek qodiriyshunoslarining monografik tadqiqotlarini o‘rganish” nomli maqolasi.